



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10409484>

Tojimatova Zulayxo Abdug'affor qizi

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasi o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida xonliklar davriga qadar yashagan ayol ijodkorlar va ularning asarlarida muallif ijodiy uslubi tadqiq etiladi. Voqelikni idrok etish va badiiy asarda tasvirlashda ayol ijodkor nuqtai nazari erkak ijodkor uslubidan farq qilishi asoslanadi.

Kalit so'zlar

tazkira, lirik qahramon, ilohiy ishq, ma'joz, tajalli, memuar, muallif shaxsiyati, avtor, obrazli fikr

ЖЕНЩИНА-ТВОРЕЦ И ТВОРЧЕСКИЙ СТИЛЬ

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются женщины-писатели, жившие в узбекской литературе до периода ханства, и творческий стиль автора в их произведениях. Оно основано на том, что точка зрения художницы-женщины отличается от точки зрения художника-мужчины в восприятии действительности и ее изображении в художественном произведении

Ключевые слова

тазкира, лирический герой, божественная любовь, метафора, таджали, мемуары, авторская личность, автор, образная мысль

FEMALE CREATOR AND CREATIVE STYLE

ABSTRACT

In this article, female authors who lived in Uzbek literature until the Khanate period and the author's creative style in their works are researched. It is based on the fact that the perspective of a female artist differs from that of a male artist in the perception of reality and the representation of it in an artistic work

Key words

tazkira, lyrical hero, divine love, metaphor, tajalli, memoir, author's personality, author, figurative thought



O'zbek adabiyotida xonliklar davriga qadar ayollar ijodi deyarli o'r ganilmagan. Bu davr ayollar ijodini, asosan, bir qator tazkiralar orqali bilamiz. Shular qatoriga Jomiyning « Nafahotul uns » asarini ham kiritish mumkin. Bu kitobning « Fi zikr al-nisoni orifot » bobida Robia Adaviya, Rayhona, Maryam, Shavvona, Fotima, Robia Shomiya, Umida kabi orifona she'rlari bilan mashhur shoiralar haqida ma'lumotlarni keltiradi. Aytish kerakki biz yuqorida keltirgan, ayollarga bag'ishlangan tazkiralarning barchasida bu shoiralar hurmat bilan tilga olinadi va she'rlaridan namunalar keltiriladi. Bundan ko'r nadiki, Sharq adabiyotida orifona she'rlar yozgan ayollar tazkiralarga kiritilgan. Navoiy "Majolis un-nafois" asarida uchta shoira haqida to'xtalib o'tadi. [1.9] Alisher Navoiyning davrida zamonning ijtimoiy-siyosiy sharoiti ayollar haqida ma'lumot yig'ib zikr etmaslikka undagan. Shu sababli Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" tazkirasida 459 shoir haqida ma'lumot bergen holda atigi uch shoirani so'zaro aytib o'tgan. Bundan tashqari « Nasoyim ul muhabbat » asarida ham bir qator shoiralarini sanab o'tadi. Ko'r nadiki, Navoiy asarlarida ayol ijodkorlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Muallif « Nasoyim ul muhabbat »da sufiylar qatorida ilohiy ishqni bevosita ifodalab she'rlar bitgan Robiya, Shavona, Robiai Shomiya, Kab qizi kabi ayollarni ham keltiradi. Jumladan, Shavonananing bir baytida :

"Azriy dimuaka amo kunta shojiya,
Innan miyoxata tashfiy lilxazinino
Jaddiy va quvmiy va suv mid daxro zoiba,
Fainnamaz-zub min fe'lil mutiyno"

Ya'ni:

"Agar sen g'amgin bo'lsang, ko'z yoshlar to'kkin.
Chunki yig'i g'amglnarning dardiga shifodir.
Tur, harakat qil, yonib-o'rtanib doimo ro'zador bo'l.
Chunki yonish va o'rtanish itoatkorlarning fe'lidur".

qalbida ilohiy ishq mavjud bo'lган ayol bevosita ifodalananadi. Va yig'i bilan poklanish g'oyasi ilgari suriladi. Bundan ko'r nadiki, ayol o'z ijodini avvlambor haqqa bo'lган muhabbatini bevosita ifodalash bilan boshlaydi.

Navoiy « Majolis un-nafois» da ma'jозија ishqni bilvosita, obrazlar orqali ifodalagan ijodkorlar qatorida Mehri Hirotiy, Bediliy va Biche (Bibicha) Munajjimalarni ham sanab o'tadi. Jumladan, Bediliyning quyidagi baytida:

Ravam ba bog, u zi nargisi du di davom kunam
Ki, to nazorai on sarvi xush xirom kunam. (MN.138)

Mazmuni.: Ul sarvning go'zal yurishini ko'rmoq uchun bog'ga boraman u nargis gulidan ikki ko'z qarz olaman.." Ma'jозија ishq obrazlar orqali ifodalananadi. Bu o'rinda "sarv" ning to'g'riliги va tikligi orqali haq nazarda tutiladi. Uning go'zal jamolini ko'rish uchun bog'ga borish kerak. Negaki, haq tajallisi ya'ni jamoli



yerdagi barcha go'zalliklarda akslanadi. Tajallini ko'rmoq uchun esa qalb ko'zi bilan qaramoq darkor. Lirik qahramon buning uchun nargis gulidan qarz oladi. Negaki, nargis guli shaklan mudom ko'zi ochiq go'zal qizga o'xshaydi. Shu o'rinda lirik qahramonning aynan nargis gulidan ko'z so'rashi muallifning ayol ekanligiga aniqlik kiritadi.

Adabiyotshunos T. Jalolov « O'zbek shoiralarini Zebunnisodan boshlab o'rgangan. Biz esa Zebunnisodan avval Gulbadanbegimga to'xtalish zarur deb hisoblaymiz. Sharq mumtoz adabiyotidagi shoiralar haqidagi tazkiralarda Gulbadanbeginning shunday bir bayti keltiriladi:

Har pariro'yki, u ba oshiqa xud yor nest,
Tu yaqin medonki, hech az umr barxurdor nest.

(Mazmuni: Har bir pari yuzli go'zal o'z oshiqa yormas ekan, sen aniq bilginki, u hayotdan bahramand emas.) Majoziy muhabbat tarannum etilgan mazkur bayt zamiridagi orzu-armonlarga ishora aniq sezilib turibdi.

Gulbadanbegim she'riyati va nasrida ijodkor ayol yozish uslubi yanada aniqlashadi. U o'zbek adabiyotida nasriy asar yaratgan dastlabki ayol ijodkordir. Gulbadanbeginning memuar harakterdagi "Humoyunnoma" asari bugungi kun nuqtai nazaridan olib qaraganda ham badiiy nasr talablariga to'la to'kis javob beradi. Birinchidan, muallifning o'zi ham qahramon sifatida asar voqealarida ishtirok etadi. Ikkinchidan, real voqelik tarixiylik va badiiylik tamoyili asosida yoritiladi. "Boburnoma"dan keyin "Humoyunnoma"ning dunyo bo'y lab e'tirof etilishi va ko'p tillarga tarjima qilinishining asosiy omillaridan biri ham shunda. Gulbadanbegim o'zi ham ayol muallif sifatida ichki saroy muhitida turib, saroy ayollarini kechinmalari - orzu intilishlari, tuyg'ulari, muammo va kamchiliklarini ro'y-rost tasvirlashga intiladi. Bu esa ushbu asarning muvaffaqiyatini belgilaydi. Gulbadanbegim xuddi otasi Bobur singari voqelikni real tasvirlaydi, har bir hodisaga holis yondashadi. Bobur bir ruboysi "Shohmen elga, vale senga quldurmen", deydi. Gap shundaki, Boburning yozgan asarlarini nazorat etuvchi syenzor yo'q edi. Aksincha, Sharqda juda ko'p adiblar va shoirlar, jumladan, Toshkentlik Xoja ham o'z asarlarini Boburning nazaridan o'tkazish maqsadida Hindistongacha borgani ma'lum. Shu sabab Bobur voqea-hodisalarni bor bo'y-basti bilan bemalol tasvirlaydi. Gulbadanbegim otasining bevosita va bilvosita ta'sirida huddi shu uslubda asar yaratadi. Shu ma'noda "Humoyunnoma" "Boburnoma"ning mantiqiy davomidek taasssurot qoldiradi. Yoshligidan adabiyot va tarixga qiziqqan, zamonasining barcha bilimlaridan boxabar bo'lgan, fors va arab tilini mukammal o'zlashtirgan Gulbadanbegim Boburning ijod borasidagi munosib vorisi bo'ldi, deyish mumkin. "Gulbadanbegim o'z shaxsiyati haqida so'z yuritganda oqilalik bilan o'zini "bu haqir", ya'ni "bu ojiz banda" deb so'z yuritadi. Aslida u nafaqat oddiy banda, balki Hindistondagi buyuk boburiylar sulolasining



asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur podshoh G'oziyning kenja qizi edi. U haqda gapirarkan "umrining to'fonli va shiddatli damlarida ham u o'zining "Gulbadan"ligini saqlab qola olgan mo'tabar bir inson edi", deydi, Margaret Pumer Goden o'zining "Gulbadan" nomli kitobida.

"Boburnoma" va "Humoyunnoma" asarlari garchi asar mavzusi, janri, qamrovi tasvir uslubi bilan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, ularni farqlab turadigan muhim bir xususiyat mavjud. Bu xususiyat muallif shaxsiyatida yaqqol ko'rindi. Asar muallifining shaxsiyati bevosita voqelikka munosabati va o'sha voqelikning badiiy ifodasida namoyon bo'ladi. Masalan, Shanboniyxon tomonidan Samarqandning 1501 – 1502 yillarda qamal qilinishi haqida Bobur shunday deb yozadi: «Bu mahalda Shayboniyxon sulh so'zini orag'a soldi. Agar bir tarafdin umidvorlik bo'lsa edi, yo zahira bo'lsa, sulh so'ziga kim qulq solur erdi. Zarurat bo'ldi, sulhguna qilib, kechadin ikki pahr bo'la yovushub edikim, Shayxzoda darvozasidin chiqildi: Volidam xonimni olib chiqtim. Yana ikki xotun kishi chiqti: biri Bichka xalifa edn, yana biri Minglik ko'kaltosh edi. Mening egachim Xonzodabegim ushbu chiqqonda Shayboqxonning ilkiga tushti...» [2.151]

Ayni voqeani Gudbadanbegim shunday izohlaydi: «Bobom hazratlari 6 oy davomida Samarqandni olmoqqa urindilar, lekin maqsadlariga yeta olmadilar, chunki Xurosondagi amakilari Sulton Husayn Mirzo Boyqaro kabi Qoshg'arda bo'lgan tog'alari – Sulton Mahmudxon ham yordam yubormadilar. Hech joydan madad va yordam kelmagach, ma'yus bo'ldilar. Ana shunday vaqtida Shohibekxon «agar o'z singlingiz Xonzodabegimni menga bersangiz, oramizda sulh tuziladi va ittifoqchilik aloqalari o'rnatiladi» deb ayttilib yubordi. Oxir Xonzodabegimni o'sha xonga berib, o'zlarining qaytishlari zarur bo'ldi» [3.24-25], – deb tasvirlaydi. Demak, Bobur «Boburnoma»da Xonzodabegimni o'z qo'li bilan Shayboniyxon qo'liga topshirganligini yozishda andisha qiladi oriyat yuzasidan «asir tushdi», deb yozadi. Epik bayon mazmunidan Gulbadanbegim Shayboniyxonning asirasi bo'lgan, degan xulosaga kelinadi. Gulbadanbegim esa ushbu voqeada sulh niqobi ostida g'oyatda katta siyosiy masalalar mavjudligini va undan Bobur, Shayboniyxon hatto, Xonzodabegimning ham manfaatdor ekanligini nozik anglaydi. Aynan Gulbadanbegim bayon uslubidan Xonzodabegim malikalar taomiliga monand tarzda izzat-ikrom bilan Shayboniyxon nikohiga o'tgani va shu yo'l bilan birinchidan, oila a'zolari hayotini saqlab qolgani, ikkinchidan Temuriylar nasli davomiyligi masalasi ham ko'zda tutilgani tushuniladi. Chindan ham, ayni paytda Shayboniyxon Xonzodabegim uchun munosib vakil edi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Gulbadanbegim ayol kishi sifatida ayol pozisiyasida turib, voqelikka munosabat bildirgan va o'sha davr siyosiy-ijtimoiy vaziyatini teran tasvirlagan, degan xulosaga kelish mumkin.



Kitobning boshqa bir o'rnida Humoyunning Hamidabonuga uylanishi tarixi keltiriladi. Unga ko'ra Humoyun Hamidabonuni ilk bor Hindol saroyida uchratadi va yoqtirib qoladi. Ikkinchisi bor ko'rishish maqsadida saroyga chaqirtirsa, kelishdan bo'yin tovlaydi, sovchi yuborsa, podshohga turmushga chiqmasligini ro'kach qilib qat'iyan rad javobini beradi; shunda oraga Gulbadanbeginning onasi Dildorbegin tushib "Axir, bir kishiga tegasan-ku, podshohdan ham yaxshi kishi bo'ladimi? desa, Hamidabonu begin unga javoban "Qo'l uzatsam bo'yniga yetadigan kishiga turmushga chiqmoqchiman", deydi[3.11]. "Agar asarda tasvirlanayotgan voqealargina qiziqarli bo'lsa-yu, avtor uning obrazli fikri, dunyoqarashi qiziqarli bo'lmasa, unga ijodkor qalbi singmasa bu, shubhasiz, faqat faktlarning nafis bayonidir"[4.16] Shu ma'noda "Humoyunnoma"da Gulbadanbeginning ushbu voqelikka munosabatida ayol bo'lgani uchun Hamidabonuning javobini qo'llab quvvatlaydi. Chunki oqila qiz bu javobi bilan shohning tengi emasligini, qo'l cho'za etagiga xam yetmaydigan kishiga hayotini bog'lab taxlika ichida yashahni istamasligini bildiradi. Shubhasizki, ushbu voqeani Gulbadanbeginidan boshqa kimsa keltirsa Hamidabonuni noshukr, iltifotga noloyiq tantiq qiz sifatida salbiy bo'yoqlarda tasvirlashi aniq edi. Broq, muallif o'zi mansub saroy muhitida ayollarning bir qadar tahlikali, og'riqli taqdirlaridan bohabar bo'lgani uchun o'z asarida bu o'rinni hayrihohlik bilan tasvirlaydi. Demak, Gulbadanbegin asarlarida ijodkor ayol nuqtai nazari namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Фаниева С. Уларни Навоий тилга олган. "Саодат" журнали, 1968-№ 9 сон.
2. Бобурнома, Тошкент. 1960. Б.
3. Гулбаданбеким.Хумоюниома.Тошкент.1959. Б.
4. Носиров У. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи.Б.
5. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. - 2021. - Т. 11. - №. 3. - С. 19-24.
6. Akbarov, A. T., and Z. A. Tojimatova. "The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 19-24.
7. Akbarov, A. T., & Tojimatova, Z. A. (2021). The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 19-24.



-
8. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 19-24.
9. Akbarov, A. T., and Z. A. Tojimatova. "The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 19-24.
10. Akbarov, A. T., & Tojimatova, Z. A. (2021). The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 19-24.
11. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 19-24.
12. Akbarov, A. T., and Z. A. Tojimatova. "The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 19-24.
13. Akbarov, A. T., & Tojimatova, Z. A. (2021). The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 19-24.
14.): 19-24.
15. 9. Akbarov, A. T., & Tojimatova, Z. A. (2021). The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 19-24.
16. 10. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 19-24.
17. 11. Akbarov, A. T., and Z. A. Tojimatova. "The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.3 (2021): 19-24.
18. 12. Akbarov, A. T., & Tojimatova, Z. A. (2021). The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 19-24.
19. 13. Akbarov A. T., Tojimatova Z. A. The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi



//ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 19-24.

20. 14. Akbarov, A. T., and Z. A. Tojimatova. "The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja

21.): 19-24.

22. Akbarov, A. T., & Tojimatova, Z. A. (2021). The harmony of the new renaissance pedagogy and the pedagogical views of mahmudkhuja behbudi. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 19-24.